



№5

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budget daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
2.	Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
3.	Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебугова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижли модели учун барқарорлик таҳлили	19
4.	Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
5.	Abduqayumov Elyorbek Ulug'bek o'g'li, Yo'ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ta'siri	33
6.	Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo'yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
7.	Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellash	46
8.	Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	O'zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
9.	Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
10.	Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
11.	Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o'g'li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o'rni	80
12.	Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o'g'li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
13.	Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
14.	Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish	111
15.	Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
16.	Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
17.	Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
18.	Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
19.	Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O'zbekiston iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni	150
20.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo'l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
21.	Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165





22.	Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li	Raqamli texnologiyalar asosida budget tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg'ona viloyati misolida	179
23.	Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O'zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
24.	Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194
25.	Худойкулова Дилора Дилмуродовна	Обеспечение надежности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов	200
26.	To'xtayev Umidjon Shuhrat o'g'li	Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish yo'llari	209
27.	Djumaniyazov Shavkat Raximovich	Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	216
28.	Siroj Zarina Rustambekovna	O'zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish	223





YANGI O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Djumaniyazov Shavkat Raximovich

Geologiya fanlari universiteti,

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası dotsenti I.f.f.d (PhD)

Email: shavkat.jumaniyozon@gmail.com

[ORCID:0009-0006-0920-2081](https://orcid.org/0009-0006-0920-2081)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, institutsional asoslari va istiqbolli yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, investitsiyalarni jalb etish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, innovatsion va raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish, hududlarda biznes infratuzilmasini kengaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi Yangi O‘zbekistonning yuqori qo‘shilgan qiymatga asoslangan, innovatsion va raqobatbardosh iqtisodiyotini shakllantirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ishbilarmonlik muhiti, investitsiya, moliyalashtirish, innovatsiya, raqamli tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, biznes infratuzilmasi, iqtisodiy o‘shish.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Джуманиязов Шавкат Рахимович

Университет геологических наук,

доцент кафедры «Экономика и менеджмент» (кандидат наук)

Электронная почта: shavkat.jumaniyozon@gmail.com

[ORCID:0009-0006-0920-2081](https://orcid.org/0009-0006-0920-2081)

Аннотация: В статье исследованы современные тенденции, институциональные основы и перспективные направления развития предпринимательства в условиях Нового Узбекистана. Особое внимание уделено повышению экономической активности субъектов предпринимательства, формированию благоприятной деловой среды, привлечению инвестиций, расширению доступа к финансовым ресурсам и внедрению цифровых технологий в предпринимательскую деятельность. Проанализирована роль малого бизнеса и частного предпринимательства в создании новых рабочих мест, повышении доходов населения, эффективном использовании экономического потенциала регионов и обеспечении устойчивого экономического роста. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения по совершенствованию механизмов поддержки предпринимательства, диверсификации источников финансирования, развитию инновационного и цифрового предпринимательства, расширению бизнес-инфраструктуры в регионах и повышению конкурентоспособности субъектов предпринимательства. Обосновано, что последовательная реализация данных направлений будет способствовать формированию в Новом Узбекистане инновационной,





конкурентоспособной экономики, основанной на создании высокой добавленной стоимости, расширении предпринимательской активности и эффективном использовании экономических ресурсов.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, предпринимательство, малый бизнес, частное предпринимательство, деловая среда, инвестиции, финансирование, инновации, цифровое предпринимательство, конкурентоспособность, бизнес-инфраструктура, экономический рост.

PROSPECTS FOR ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Djumaniyazov Shavkat Raximovich

*University of Geological Sciences,
Department of Economics and Management,
Associate Professor, PhD in Economics
Email: shavkat.jumaniyozon@gmail.com
[ORCID:0009-0006-0920-2081](https://orcid.org/0009-0006-0920-2081)*

Abstract: *This article examines the current trends, institutional foundations, and promising directions for developing entrepreneurship in the context of New Uzbekistan. Particular attention is paid to increasing the economic activity of business entities, creating a favorable business environment, attracting investment, expanding access to financial resources, and introducing digital technologies into entrepreneurial activities. The study analyzes the role of small business and private entrepreneurship in creating new jobs, increasing household incomes, effectively utilizing the economic potential of regions, and ensuring sustainable economic growth. Based on the research findings, scientific and practical recommendations are developed to improve entrepreneurship support mechanisms, diversify financing sources, promote innovative and digital entrepreneurship, expand business infrastructure in the regions, and enhance the competitiveness of business entities. The study substantiates that the consistent implementation of these directions can contribute to the formation of an innovative and competitive economy in New Uzbekistan based on high value-added activities, expanded entrepreneurial initiative, and efficient use of economic resources.*

Keywords: *New Uzbekistan, entrepreneurship, small business, private entrepreneurship, business environment, investment, financing, innovation, digital entrepreneurship, competitiveness, business infrastructure, economic growth.*

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan globallashuv, raqamli transformatsiya, texnologik yangilanish va raqobat muhitining kuchayishi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni iqtisodiy siyosatning ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylantirmoqda. Tadbirkorlik nafaqat yangi korxonalar va ish oʻrinlarini yaratish, balki innovatsiyalarni iqtisodiyotga joriy etish, raqobat muhitini kuchaytirish, aholi daromadlarini oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda hududlarning iqtisodiy salohiyatini roʻyobga chiqarishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik uchun qulay institutsional va moliyaviy muhitni shakllantirish, biznes yuritishdagi maʼmuriy toʻsiqlarni kamaytirish va xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini kengaytirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim vazifalaridan biridir.

Oʻzbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususiy mulk va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, investitsiyaviy faollikni oshirish hamda bozor mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar shakllanmoqda. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, kredit va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq va maʼmuriy tartib-taomillarni soddalashtirish





hamda raqamli xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi iqtisodiy o‘shishning miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda uning sifat jihatlarini ham ta‘minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hajmini kengaytirishi, yangi bozorlarni egallashi, eksport salohiyatini oshirishi, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishi va mehnat unumdorligini yuksaltirishi iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasiga xizmat qiladi. Shu sababli tadbirkorlikni faqat aholi bandligini ta‘minlovchi faoliyat sifatida emas, balki iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishning muhim instituti sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Tadbirkorlik muhitining rivojlanishida hududiy omillar ham alohida ahamiyatga ega. Hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyati, mehnat resurslari, infratuzilmasi, investitsiyaviy jozibadorligi, bozor sig‘imi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari tadbirkorlik faolligining hududlar kesimidagi farqlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish, biznes infratuzilmasini rivojlantirish va tadbirkorlik subyektlari uchun teng iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi esa tadbirkorlik faoliyatining mazmuni va shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Elektron tijorat, raqamli to‘lovlar, onlayn davlat xizmatlari, sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar, bulutli texnologiyalar va raqamli marketing vositalarining keng qo‘llanilishi tadbirkorlik subyektlariga xarajatlarni optimallashtirish, yangi iste‘molchilar segmentlariga chiqish va boshqaruv qarorlarining tezkorligini oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, tadbirkorlarning raqamli kompetensiyalari, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari va innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bilan bog‘liq masalalar yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Mazkur sharoitda tadbirkorlikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va samarali institutsional mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish, investitsiya va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirish, raqamli biznes modellarini rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash hamda hududlarda biznes infratuzilmasini takomillashtirish masalalari alohida tadqiqotni talab qiladi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning **asosiy maqsadi** Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, uning iqtisodiy o‘shishdagi o‘rnini baholash hamda tadbirkorlikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda xususiy sektor faolligini oshirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Xususan, World Bank tomonidan ishlab chiqilgan **Business Ready (B-READY)** metodologiyasida tadbirkorlik muhiti tartibga solish tizimi, davlat xizmatlari va operatsion samaradorlik kabi uchta asosiy yo‘nalish orqali baholanadi. Mazkur yondashuv tadbirkorlik faoliyatini faqat korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan emas, balki biznesning butun hayotiy sikli va xususiy sektor rivojlanishi bilan bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi [1].

O‘zbekiston misolida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarda xususiy sektorning iqtisodiy o‘shishdagi rolini kuchaytirish muhim yo‘nalish sifatida qayd etiladi. World Bankning O‘zbekiston bo‘yicha tadqiqotlarida biznes muhitini yaxshilash, raqobatni kuchaytirish, xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirish va firmalarning o‘shishi uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish zarurligi ta‘kidlangan [2].





Osiyo taraqqiyot banki tadqiqotlarida esa kichik va oʻrta biznesni rivojlantirishda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bankdan tashqari moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish, maʼmuriy xarajatlarni kamaytirish, savdo jarayonlarini raqamlashtirish va tadbirkorlarning koʻnikmalarini oshirish muhim omillar sifatida koʻrsatilgan [3].

Tadbirkorlikning innovatsion yoʻnalishlari ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. ADBning Oʻzbekiston texnologik startaplari boʻyicha tadqiqotida mamlakatda texnologiyaga asoslangan startaplar soni oshib borayotgani, biroq ularning rivojlanishi uchun moliyalashtirish, mentorlik, inkubatsiya va malakali kadrlar tizimini yanada takomillashtirish zarurligi qayd etilgan [4].

2023-yilgi **Asia Small and Medium-Sized Enterprise Monitor** hisobotida ham Oʻzbekiston kichik va oʻrta biznesi boʻyicha maʼlumotlar keltirilib, ushbu sektorni rivojlantirish siyosatini dalillarga asoslangan holda shakllantirish zarurligi koʻrsatilgan. Mazkur yondashuv tadbirkorlikni rivojlantirishda statistik maʼlumotlar va empirik koʻrsatkichlardan foydalanishning ahamiyatini oshiradi [5].

UNDPning Oʻzbekistondagi ayollar tadbirkorligi boʻyicha 2025-yilgi tadqiqotida ayollar tadbirkorligi sezilarli darajada kengaygani, biroq moliyaviy resurslardan foydalanish, malaka oshirish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish bilan bogʻliq ayrim cheklovlar mavjudligi qayd etilgan. Tadqiqotda tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash siyosatida gender jihatlarini hisobga olish zarurligi asoslangan [6].

Shuningdek, UNDP tomonidan 2024-yilda Oʻzbekiston delegatsiyasining Germaniyada kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash tajribasini oʻrganishi doirasida innovatsion yechimlar, raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirish boʻyicha xalqaro tajribalarni oʻrganish muhimligi koʻrsatib berilgan [7].

OECDning kichik va oʻrta biznes siyosatini baholash metodologiyasi tadbirkorlik siyosatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, davlat siyosatini xalqaro ilgʻor tajribalar bilan taqqoslash hamda strategik ustuvor yoʻnalishlarni belgilash imkonini beradi [8].

World Bankning Oʻzbekiston boʻyicha 2025-yilgi **Country Economic Memorandum** hisobotida esa xususiy sektor yetakchiligidagi iqtisodiy oʻsishni taʼminlash uchun tartibga solish yukini kamaytirish, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish, raqobat muhitini kuchaytirish, savdo integratsiyasini chuqurlashtirish va raqamli yechimlardan foydalanishni kengaytirish muhimligi taʼkidlangan [9].

Tadqiqotlar metodologiyasi

Tadqiqotda Yangi Oʻzbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarini kompleks baholashga yoʻnaltirilgan **tizimli, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan** foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi, xalqaro tashkilotlar hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga oid rasmiy maʼlumotlar tashkil etdi. Tahlil jarayonida tadbirkorlik subyektlari soni, kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi, bandlik, investitsiyalar va boshqa asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlarning dinamikasi oʻrganildi.

Tadqiqotda **statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, taqqoslash, tizimli tahlil va umumlashtirish** usullaridan foydalanildi. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishga taʼsir etuvchi moliyaviy, institutsional, innovatsion va raqamli omillar oʻzaro bogʻliqlikda baholandi. Olingan natijalar asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli yoʻnalishlari aniqlanib, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Yangi Oʻzbekiston sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonini baholashda uning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi, bandlikni taʼminlashdagi oʻrni, yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi hamda iqtisodiyotning alohida tarmoqlaridagi faolligini birgalikda koʻrib chiqish maqsadga muvofiq. Soʻnggi yillardagi statistik maʼlumotlar tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi boʻlib qolayotganini koʻrsatadi.





O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2021-yildagi 56,3 foizdan 2022-yilda 54,3 foizga, 2023-yilda 53,8 foizga, 2024-yilda 53,5 foizga va 2025-yilda 52,2 foizga teng bo‘lgan. Shu bilan birga, 2025-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan YaIM hajmi **923,5 trln so‘mni** tashkil etgan.

1-jadval.

Kichik biznesning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi asosiy ko‘rsatkichlari*

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
YaIMdagi ulushi, %	56,3	54,3	53,8	53,5	52,2
Kichik biznes tomonidan yaratilgan YaIM, trln so‘m	455,7	533,1	646,8	789,5	923,5
Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari, birlik	98 886	90 177	86 030	77 046	82 386
Bandlikdagi ulushi, %	74,5	73,9	74,0	73,9	74,9

***Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma’lumotlari tadbirkorlik rivojlanishida muhim jihatni ko‘rsatadi: kichik biznesning YaIMdagi ulushi pasaygan bo‘lsa-da, uning iqtisodiyotda yaratgan **mutlaq qo‘shilgan qiymati izchil oshgan**. Xususan, 2021–2025-yillarda kichik biznes tomonidan yaratilgan YaIM 455,7 trln so‘mdan 923,5 trln so‘mgacha oshgan. Bu davrda nominal hajm qariyb ikki barobarga yaqin ko‘paygan. Shu sababli ulushning kamayishini tadbirkorlik faoliyatining mutlaq qisqarishi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas; mazkur ko‘rsatkich, avvalo, umumiy iqtisodiy o‘sish va iqtisodiyot tarkibidagi boshqa sektorlarning kengayishi bilan birgalikda baholanishi lozim.

Tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyati, ayniqsa, bandlik ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. 2025-yilda kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi **74,9 foizni** tashkil etgan. Bu 2024-yilga nisbatan 1 foiz punktga yuqori bo‘lib, kichik biznesning mehnat bozoridagi rolini saqlab qolganini ko‘rsatadi. Demak, tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati nafaqat iqtisodiy faollikni, balki aholining daromad manbalarini kengaytirish va bandlikni ta’minlashni ham qamrab olishi zarur.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonida ham muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi. 2021-yilda 98 886 ta yangi subyekt tashkil etilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 77 046 taga tushgan, 2025-yilda esa **82 386 taga** yetgan. Ya’ni 2025-yilda yangi tashkil etilgan subyektlar soni oldingi yilga nisbatan tiklanish tendensiyasini namoyon qilgan. Bu holat tadbirkorlikka kirish jarayonida faollik saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Tarmoqlar kesimidagi tahlil tadbirkorlikning iqtisodiyotning barcha sohalarida bir xil darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. 2025-yilda kichik biznesning tegishli tarmoq YaIMdagi ulushi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida **93,1 foiz**, qurilishda **75,6 foiz**, xizmatlar sohasida **47,2 foiz**, sanoatda esa **28,5 foizni** tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlar tadbirkorlik subyektlarining ayniqsa qishloq xo‘jaligi va qurilishdagi iqtisodiy faolligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Sanoatdagi ko‘rsatkichlar esa tadbirkorlikning rivojlanishi uchun hali katta imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. 2025-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan **383,9 trln so‘mlik sanoat mahsuloti** ishlab chiqarilgan va ularning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 34,9 foizni tashkil etgan. 2024-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishi 14,8 foizga oshgan.

Qurilish sohasida ham kichik biznesning ishtiroki yuqori bo‘lib, 2025-yilda ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **230,9 trln so‘mni** tashkil etgan va jami qurilish ishlarining 73,6 foizi kichik biznes hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu holat tadbirkorlikning real sektor rivojlanishidagi ahamiyati yuqoriligini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida esa tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, 2025-yilda kichik biznesning YaIMdagi ulushi Jizzax viloyatida 71,2 foiz, Buxoro viloyatida 71,0 foiz, Andijon viloyatida 70,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida 21,1 foizni tashkil qilgan.

Mazkur tafovut hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, yirik korxonalar ulushi, ishlab





chiqarish tarkibi, resurs bazasi va tadbirkorlik infratuzilmasi bilan bog‘liq holda izohlanishi mumkin. Shu sababli kelgusida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yagona yondashuvdan tashqari, **hududlarning iqtisodiy salohiyati va ixtisoslashuviga mos differensial mexanizmlarni** qo‘llash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tahlil natijalari O‘zbekistonda tadbirkorlik sektorining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Biroq keyingi bosqichda asosiy e‘tiborni tadbirkorlik subyektlari sonini ko‘paytirish bilan bir qatorda, ularning **mehnat unumdorligi, innovatsion faolligi, eksport salohiyati, raqamlashtirish darajasi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini oshirishga** qaratish zarur. Ayniqsa, sanoatda kichik biznes ulushini oshirish, innovatsion startaplarni moliyalashtirish, raqamli biznes xizmatlarini kengaytirish va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirish Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim istiqbolli yo‘nalishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik iqtisodiy o‘shish, bandlikni ta‘minlash va aholi daromadlarini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida shakllanmoqda. So‘nggi yillarda kichik biznes tomonidan yaratilayotgan iqtisodiy qiymatning ortib borishi tadbirkorlik faoliyatining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tarmoqlar va hududlar kesimida mavjud tafovutlar tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish** – kichik biznes subyektlari uchun kredit, kafillik va boshqa moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash.
2. **Innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirish** – texnologik startaplar, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish.
3. **Raqamli tadbirkorlikni kengaytirish** – elektron tijorat, raqamli to‘lovlar, onlayn xizmatlar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash.
4. **Hududiy yondashuvni kuchaytirish** – tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini hududlarning resurs salohiyati, iqtisodiy ixtisoslashuvi va mavjud infratuzilmasidan kelib chiqib shakllantirish.
5. **Sanoatdagi kichik biznes ulushini oshirish** – qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportga yo‘naltirilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.
6. **Tadbirkorlarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish** – moliyaviy savodxonlik, marketing, eksport, raqamli texnologiyalar va biznes boshqaruvi bo‘yicha amaliy o‘quv dasturlarini kengaytirish.

Shunday qilib, tadbirkorlikni rivojlantirishning keyingi bosqichida asosiy e‘tibor biznes subyektlari sonini ko‘paytirish bilan bir qatorda, ularning **barqarorligi, raqobatbardoshligi, innovatsion faolligi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini oshirishga** qaratilishi lozim. Mazkur yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish va Yangi O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank Group. *Business Ready 2024*. Washington, DC: World Bank Group, 2024.
2. World Bank. *Uzbekistan’s Reforms for Private Sector Growth, Social Protection, and Climate Action to Benefit from World Bank Support*. Washington, DC, 2024.
3. Asian Development Bank. *Small and Medium-Sized Enterprises Development Program (Subprogram 2): Uzbekistan*. Manila: ADB, 2023.
4. Asian Development Bank. *Uzbekistan’s Ecosystem for Technology Startups*. Manila:





ADB, 2023.

5. Asian Development Bank. *Asia Small and Medium-Sized Enterprise Monitor 2023: Uzbekistan*. Manila: ADB, 2023.

6. UNDP Uzbekistan. *Women's Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations*. Tashkent, 2025.

7. UNDP Uzbekistan. *Uzbek Delegation Studies Germany's Experience in Supporting Small and Medium Enterprises (SMEs)*. Tashkent, 2024.

8. OECD. *SME Policy Index: Assessing the Implementation of the Small Business Act for Europe*. OECD Publishing.

9. World Bank. *Uzbekistan – Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration*. Washington, DC: World Bank, 2025.

